



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 23-dekabr, № 270 (9165)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI MDH DAVLATLARI RAHBARLARINING NORASMIY UCHRASHUVIDA ISHTIROK ETDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-22-dekabr kunlari amaliy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.



Davlatimiz rahbari 22-dekabr kuni Sankt-Peterburgdagi “Ermitaj” davlat muzeyida MDH davlatlari rahbarlarining norasmiy uchrashuvida ishtirok etdi.

Tadbirida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va Armaniston Bosh

vaziri Nikol Pashinyan ham qatnashdilar.

Uchrashuvda joriy yildagi birgalikdagi ishlarining asosiy yakunlari sarhisob qilindi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar belgilab olindi. Shuningdek, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O'zaro tovar ayirboshlashni oshirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish, transport sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro investitsiyalar o'zishini rag'batlantirish va kooperatsiya

loyihalarini qo'llab-quvvatlash, energetika va raqamlashtirishda sheriklikni mustahkamlash, fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohalarida qo'shma loyihalarni kengaytirish, shuningdek, hududlar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi.

Hamdo'stlik mamlakatlari o'rtasida madaniy va gumanitar almashinuvlarni davom ettirish, xususan, yoshlarning ijodiy, innovatsion va intellektual salohiyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash zarurligi qayd etildi.



Sankt-Peterburgdagi norasmiy uchrashuvning madaniy dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar rahbarlari bilan birgalikda “Ermitaj” davlat muzeyiga tashrif buyurdi.

Yetakchilar noyob san'at asarlari va madaniyat yodgorliklari to'plangan ushbu dunyodagi eng yirik muzeylaridan birining ekspozitsiyasi bilan tanishdilar. Tashrif chog'ida Rossiya va Yevropa tarixi hamda badiiy merosining asosiy bosqichlarini

aks ettirgan Bosh muzey majmuasi zallari bilan tanishildi.

Delegatsiyalar rahbarlari Aleksandr zalida bo'lib, badiiy kumush ekspozitsiyasini ko'zdan kechirdilar, shuningdek, tantanali marosimlar va rasmiy tadbirlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan Piketlar zali va Gerblar zaliga tashrif buyurdilar.

Qimmatbaho metallardan tayyorlangan betakror buyumlar saqlanuvchi Oltin xazina, afsonaviy “Tovus” mexanik soati joylashgan Kichik Ermitajning Pavilyonlar zali mehmonlarda alohida qiziqish uyg'otdi.

Tashrif davomida madaniy muloqotni mustahkamlash, tarixiy merosni asrab-avaylash va Hamdo'stlik davlatlari o'rtasida gumanitar hamkorlikni rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

Uchrashuv

O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI YANADA MUSTAHKAMLASH YO'LIDA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Saudiya Arabistoni Podshohligining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Yusuf al-Utaybiy bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida so'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi siyosiy muloqot faollashgani, oliy va yuqori darajadagi o'zaro tashriflar muntazam tus olgani qayd etildi. O'zbekiston Prezidentining Saudiya Arabistoniga davlat tashrifi, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy sammitlar doirasidagi uchrashuvlar strategik sheriklikni mustahkamlashga xizmat qilgani ta'kidlandi.

Uchrashuv davomida parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Ikki mamlakat parlamentlarida tashkil etilgan do'stlik guruhlari faoliyatini yanada faollashtirish, tajriba almashish va o'zaro tashriflarni kengaytirish muhimligi qayd qilindi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklik bo'yicha erishilgan amaliy natijalarga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, investitsiya loyihalarini portfelining sezilarli darajada kengaygani, energetika sohasida, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha yirik qo'shma loyihalar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi.

Madaniy-gumanitar yo'nalishdagi hamkorlik, sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan qo'shma tadbirlar, shuningdek, Haj va Umra ziyoratlarini tashkil etishda yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlayotgani urg'ulandi.

Xususan, poytaxtimizda bunyod etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining islom madaniy merosini o'rganishdagi ahamiyati alohida ta'kidlandi. Kelgusida mazkur markaz bilan ilmiy tadqiqotlar olib borish, xalqaro anjumanlarni o'tkazishda hamkorlikni kuchaytirish yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida tomonlar O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasida parlamentlararo aloqalar izchil rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etib, o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash yo'lida bundan buyon ham sa'y-harakatlarni amalga oshirishga tayyor ekanini bildirdi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

MUHOKAMALARDA QO'LLAB-QUVVATLANGAN QONUNCHILIK TASHABBUSLARI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan masalalar atroflicha ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimizning shu yil 18 — 20-dekabr kunlari Yaponiyaga rasmiy tashrifining ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Deputatlar davlatimiz rahbarining ushbu mamlakatga tashrifi O'zbekiston — Yaponiya do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash yo'lidagi muhim voqea bo'lib, ikki tomonlama aloqalarni yanada

rivojlantirishga xizmat qilishini qayd etdi.

Tokiodagi uchrashuv va tadbirlar O'zbekistonning mintaqaviy jarayonlardagi kuchayib borayotgan mavqei hamda yetakchi xalqaro sheriklar bilan ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish tamoyiliga sodiqligini yana bir bor tasdiqlagani ta'kidlandi.

Fraksiya a'zolari mamlakatimiz rahbarining Yaponiyaga tashrifi va “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi

sammitidagi ishtiroki ikki hamda ko'p tomonlama hamkorlikni chuqurtashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochishini e'tirof etdi.

Shundan so'ng bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan — korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruza bilan keng tanishish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruza Oliy Majlis palatalariga taqdim etilishning aniq muddatini belgilash taklif qilinmoqda.



ENERGETIKA BARQARORLIGI – FAROVONLIGIMIZ ASOSI



— Bu sohada xorijiy sarmoya va innovatsiyaning nechog'li muhimligi shu yil 5-dekabr kuni davlatimiz rahbari ishtirokida o'tkazilgan “Barqaror energetika — Yangi O'zbekistonning kelajak sari ishonchli qadami” deb nomlangan anjumanda ham aytib o'tildi, — deydi Energetika vazirligi mas'ul xodimi Dildora Hoshimova. — Shu kuni qariyb 11 mlrd. dollarlik 42 ta yangi quvvat va infratuzilma obyekti ishga tushirildi va 21 ta loyiha qurilishiga “start” berildi. E'tiborli jihat shundaki, mamlakatimizning chet el investitsiyalari uchun jozibadorligi oshib borayotgani sababli so'nggi 5-yilda energetika tizimiga 35 mlrd. dollar xorijiy sarmoyalar jalb qilindi va 9 GvT yangi quvvatlar ishga tushirildi. Shuning o'ziyog o'n minglab ish o'rinlari yaratildi, ko'plab ijtimoiy obyektlar bunyod etilmoqda deganidir.

Ilgari quyosh paneli, shamol yordamida

Sarhisob

elektr energiyasi hosil qilinishini ko'pchilik tasavvuriga sig'dira olmas, yangilikka shubha bilan qarardi. Bugun esa ularning jozibadorligi keskin oshmoqda. Xitoy va boshqa davlatlardan quyosh paneli, shamol parraklari, ehtiyot qismlarini import qilgan tadbirkorlarimiz hozirda bu uskunalarni mahalliy lashtirishga jiddiy kirishgan. Ustalarining “yashil” energiya manbalarini o'rnatish bo'yicha tajribasi oshdi,



texnika va uskunalariga xizmat ko'rsatish borasidagi malaka ham yuqori darajada shakllanmoqda. Shu bois ham o'tgan qisqa vaqt ichida xususiy sektor, aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarida 2 GvT quvvatli kichik quyosh panellari o'rnatildi. Natijada shu yilning o'zida qo'shimcha 2 mlrd. kvT-soat “yashil” energiya ishlab chiqarildi.



Онлайн мулоқот

ИЗЧИЛ РИВОЖЛАНАЎТГАН
ПАРЛАМЕНТЛАРАРО
АЛОҚАЛАР

Олий Мажлис Сенатида “Ўзбекистон — Сербия” ва “Сербия — Ўзбекистон” парламентлараро ҳамкорлик гуруҳларининг онлайн мулоқоти бўлиб ўтди.

Onlayn muloqot
IZCHIL
RIVOJLANAYOTGAN
PARLAMENTLARARO
ALOQALAR

Oliy Majlis Senatida “O‘zbekiston — Serbiya” va “Serbiya — O‘zbekiston” parlamentlararo hamkorlik guruhlarining onlayn muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zbekiston — Serbiya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish, xususan, parlamentlararo muloqotni chuqurlashtirish, o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini belgilash masalalari muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda ikki mamlakat

o‘rtasida siyosiy aloqa va iqtisodiy hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda. Oliy darajadagi o‘zaro tashriflar va uchrashuvlar bu jarayonga yangi sur‘at bag‘ishlayotgani qayd etildi.

Xususan, shu yil oktyabr oyida Serbiya Prezidentining O‘zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqqan muhim voqea sifatida e’tirof etildi. Tashrif doirasida, parlamentlararo sheriklikni kengaytirish, qo‘mitalar va do‘stlik guruhlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgani ta’kidlandi.

Muloqot chog‘ida



VATAN TINCHLIGI,
EL OSOYISHTALIGI
KAFOLATI

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi majlisida O‘zbekiston Qurolli Kuchlarini yanada rivojlantirish, fuqarolarning harbiy xizmatni o‘tashi va mamlakat harbiy xavfsizligini ta’minlashga oid masalalar yuzasidan Mudofaa vazirligi tizimida olib borilayotgan ishlar hamda fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash holati to‘g‘risida Mudofaa vazirining axboroti eshitildi.

Senat qo‘mitasida

Qayd etilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti — Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo‘yicha belgilab bergan vazifalarning so‘zsiz va sifatlil ijrosini ta’minlash maqsadida Mudofaa vazirligi tizimida samarali ishlar olib borilgan. Buning natijasida mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining salohiyati yuqori darajaga ko‘tarildi.

Milliy armiyamizning jangovar shayligi va tayyorgarligini oshirishda, asosan, zamonaviy qurolli to‘qnashuvlar tahlillari hamda rivojlangan xorijiy armiyalarning ijobiy tajribalari qo‘shinlarga tatbiq etilgan.

Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Isroil, Rossiya, Xitoy va Hindiston kabi o‘ndan ortiq ilg‘or xorijiy davlatlar armiyalari tajribasini o‘rganish asosida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining yuksak salohiyatiga oid yangi tizim ishlab chiqilib, idoralararo qo‘shma qaror bilan joriy etilgan. Bunda jangovar shaylik darajasi optimallashtirilib, shu holatga keltirish muddati 1,2 marotaba qisqartirilgan.

2025-yilda fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish hamda xizmat muddatini o‘tab bo‘lganlarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish tadbirlari rejali amalga oshirilgan. Mudofaa ishlari bo‘limlari hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hududiy bo‘limlari bilan

hamkorlikda muddatli harbiy xizmatni o‘tab, rezervga bo‘shatilgan fuqarolarning 89,4 foizli ish bilan ta’minlangan.

Shu bilan birga, 385 nafar harbiy xodim imtiyozli ipoteka kreditlari asosida yangi xonadonlar, 178 nafari esa xizmat uylari bilan ta’minlangan.

Mudofaa vazirligiga birlashtirilgan 14,6 mingdan ziyod “alohida ishlash talab etiladigan yoshlar” bilan o‘tkazilgan profilaktik-tarbiyaviy tadbirlar natijasida qariyb 3,5 ming yosh muddatidan avval profilaktik hisobdan chiqarilgan.

Vazirlik tizimida 2025-yilning o‘tgan davrida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. O‘tgan 11 oyda Mudofaa vazirligiga jismoniy va yuridik shaxslardan 3 157 ta murojaat kelib tushgan, shundan 1 222 tasi ijobiy hal etilgan, 1 358 ta murojaatga huquqiy maslahat berilgan va 90 tasi o‘rganib chiqilmoqda.

Shuningdek, vazirlik tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo‘limi tarkibida joriy yil 1-noyabrdan “Call center” bo‘linmasi tashkil qilinib, bir oyda kelib tushgan jami 857 ta murojaatning 722 tasi og‘zaki hal etilgan, 135 tasi o‘rganib chiqilmoqda.

Muhokama yakunida ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining qarori qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

ЕВРООСИЁ МАКОНИДАГИ
МУВОЗАНАТЛИ ЁНДАШУВ

Санкт-Петербург шахрида бўлиб ўтган Олий Евроосиё иқтисодий кенгаши йиғилиши Ўзбекистон ташқи сиёсатининг ҳозирги босқичдаги муҳим хусусиятини яна бир бор намоён этди: мамлакат халқаро майдонда қатъий позицияга эга, бироқ мувозанатли ва прагматик ёндашувни танлаган.

Мушоҳада

Mushohada
YEVIROOSIYO MAKONIDAGI
MUVOZANATLI YONDASHUV

Sankt-Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashi yig‘ilishi O‘zbekiston tashqi siyosatining hozirgi bosqichdagi muhim xususiyatini yana bir bor namoyon etdi: mamlakat xalqaro maydonda qat’iy pozitsiyaga ega, biroq muvozanatli va pragmatik yondashuvni tanlagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi sammitida kuzatuvchi davlat rahbari sifatida ishtiroki O‘zbekiston uchun ushbu format siyosiy ramz emas, balki aniq iqtisodiy manfaatlariga asoslangan hamkorlik maydoni ekanini ko‘rsatdi. Global iqtisodiy beqarorlik, logistika yo‘nalishlarining qayta shakllanishi va savdo oqimlaridagi o‘zgarishlar sharoitida Yevroosiyo makonida ishonchli sheriklar

bilan hamkorlik qilish strategik zaruratga aylanmoqda.

Yig‘ilishda ilgari surilgan — savdo to‘siqlarini kamaytirish, texnik va sanitariya bo‘lxona tizimlarini joriy qilish kabi takliflar O‘zbekistonning integratsiyaga nisbatan real natijaga qaratilgan yondashuvini aks ettiradi. Ayniqsa, tovar ayirboshlash hajmining qariyb ikki barobarga o‘shishi mamlakatning YOII bilan hamkorligi amalda ham iqtisodiy foyda keltirayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston tashqi siyosatini faqat iqtisodiy manfaatlar doirasida baholash to‘liq tasavvur bermaydi. Mamlakatning Yevroosiyo makonidagi faolligi Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli diplomatiya bilan uzviy bog‘liq. Shu jihatdan O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston Prezidentlariga Lev Tolstoy nomidagi Xalqaro tinchlik mukofotining topshirilishi muhim siyosiy

signal sifatida qabul qilinishi mumkin.

Mukofotga asos bo‘lgan Xo‘jand kelishuvi, ya’ni davlat chegaralari masalasidagi o‘zaro anglashuv va Abadiy do‘stlik deklaratsiyasi — Markaziy Osiyoda yillar davomida murakkab bo‘lib kelgan masalalar siyosiy iroda va muloqot orqali hal etilishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu jarayon O‘zbekistonning mintaqada mojarolar manbai emas, balki kelishuv va yarashuv tashabbuskori sifatidagi o‘rmini mustahkamladi.

Aynan shu nuqtada iqtisodiy integratsiya va tinchlik diplomatiyasi bir-birini to‘ldiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Savdo, transport va raqamli aloqalar rivojlanmagan hududda barqaror tinchlikka erishish qiyin. Xuddi shuningdek, tinchlik va ishonch muhiti bo‘lmagan mintaqada iqtisodiy integratsiya samara bermaydi. O‘zbekiston siyosati esa ushbu ikki yo‘nalishni uyg‘un holda ilgari surishga qaratilgan.

Sankt-Peterburgdagi uchrashuvlar O‘zbekistonning Yevroosiyo makonida faol, mustaqil va konstruktiv tashqi siyosat olib borayotgan davlat sifatidagi o‘rmini yanada mustahkamladi. Iqtisodiy manfaat, mintaqaviy barqarorlik va insonparvarlik qadriyatlariga tayangan ushbu yo‘l mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat

Konferensiya

ILM-FAN VA
AMALIYOT
UYG‘UNLIGI

Andijon shahrida yarimo‘tkazgichli mikroelektronika va nanotexnologiya sohasidagi so‘nggi ilmiy yutuqlar, innovatsion yechimlar hamda ularni amaliyotga tatbiq etish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda mahalliy va xorijiy yetakchi olimlar, sohaning nufuzli mutaxassislari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari vakillarining mazkur yo‘nalish bo‘yicha ma’ruzalari eshitildi.

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Odiljon Mamatkarimov o‘z ma’ruzasida mamlakatimizda ilmiy tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish hamda ushbu sohada xalqaro hamkorlikni kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga alohida e’tibor qaratdi. Shuningdek, yuqori texnologiyalar sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatni yuksaltirish muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi.

Konferensiya ishtirokchilari o‘zaro tajriba almashib, ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

“Xalq so‘zi”.

MUHOKAMALARDA QO‘LLAB-QUVVATLANGAN
QONUNCHILIK TASHABBUSLARI



Muhokama davomida fraksiya a‘zolari Aziza Aminova, Diyor Husanov va boshqalar qonun loyihasining mazmun-mohiyatiga alohida to‘xtalib, uning zarurati va ahamiyati yuzasidan o‘z fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini bildirdi.

Yig‘ilishda ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi dolzarb masalalarning Oliy Majlis palatalari tomonidan o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta’minlashga hamda korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning bu boradagi mas’uliyatini yanada oshirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Munozaralardan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi qizg‘in muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, ushbu loyiha o‘z boshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga nisbatan huquqlarni e’tirof etish ishlarini yanada tezlashtirishga qaratilgan.

Qonun loyihasida vakolatli tashkilotlar va adliya organlari tomonidan yig‘ma jild hujjatlarini ko‘rib chiqish hamda e’lon berish muddatlarini qisqartirish, yakka tartibdagi uy-joylar qurish orqali ortiqcha egallangan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqini e’tirof etishda bozor qiymati o‘rniga qat’iy belgilangan miqdorda bir martalik to‘lov undirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, loyiha bilan bir martalik to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilgan taqdirda, avtomatik ravishda 50 foiz chegirma qo‘llash, to‘lovlar belgilangan muddatda amalga oshirilmagan taqdirda tuman (shahar) soliq inspeksiya va tegishli shaxslar o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida

to‘lovlarni 1-yildan 3-yilgacha bo‘lgan muddatga bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilmoqda.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirov qonun loyihasiga munosabat bildirib, haqiqatan ham, so‘nggi paytlarda o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga egalik huquqini berish bilan bog‘liq qo‘plab muammolar paydo bo‘lganini ta’kidladi.

— Ushbu qonun loyihasi bilan bugungi amaliyotdan kelib chiqib, bu borada aholini qiynayotgan muammolar yechilyapti va yanada yengillik berilyapti, — dedi fraksiya rahbari.

Deputatlar ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga nisbatan huquqlarni e’tirof etish ishlarini yanada jadallashtirish, qonun ijrosini amaliyotda izchil va bir xilda ta’minlashga xizmat qilishidan kelib chiqib, uni qo‘llab-quvvatladi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “Sud-ekspertlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Loyiha bilan nodavlat sud ekspertlarining huquqiy maqomi belgilanmoqda. Ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi muassasa (tashkilot)larning o‘z faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishiga ruxsat berish nazarda tutilyapti.

Shuningdek, advokatning so‘roviga asosan hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq shartnoma asosida davlat va nodavlat sud ekspertlari tomonidan tadqiqotlar o‘tkazish va ekspertlik fikrini berish tartiblarini belgilanmoqda.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan berilgan takliflardan kelib chiqib, sud ekspertizasini o‘tkazishda kasbiy sirni saqlash prinsipi bilan to‘ldirilgan. Shuningdek, Adliya vazirligi huzuridagi Ekspert-malaka komissiyasining nodavlat sud ekspertlari qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilishi yoki aralashishi taqiqlanishi nazarda tutilgan norma bilan boyitilgan.

Sud ekspertizasini to‘xtatib turish asoslari va muddatlarini qonun darajasida aniq belgilash maqsadida alohida “Sud ekspertizasi o‘tkazishni to‘xtatib turish asoslari va muddatlari” nomli modda bilan to‘ldirilgan.

Deputatlar qonun loyihasining qabul qilinishi sud ekspertlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, ekspertiza xulosalarining ishonchiligidini yanada oshirish, pirovardida odil sudlovni ta’minlashga xizmat qilishini qayd etdi.

Yig‘ilishda qonun loyihasi fraksiya a‘zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Muhokama davomida so‘z olgan fraksiya a‘zosi Firdavs Sharipov qonun loyihasida nazarda tutilayotgan muddatlarni aniq belgilash taklifini ilgari surdi. Uning ta’kidlashicha, bu ushbu hujjatning kelgusida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashi va samarali ijrosini

ta’kidladi.

Savol-javoblardan so‘ng ko‘rib chiqilgan qonun loyihalari qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida bir qator muhim masalalar muhokama qilindi.

Dastlab O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruza bilan keng tanishish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, mazkur qonun loyihasi bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan har yili tayyorlanadigan milliy ma’ruzani Oliy Majlis palatalariga taqdim etishning aniq muddatlarini belgilash nazarda tutilmoqda. Ya’ni milliy ma’ruzani navbatdagi yilning 1-apreldan kechiktirmasdan parlamentga kiritish tartibini qonun darajasida mustahkamlash taklif etilmoqda.

Muhokamada mazkur o‘zgartirishlar korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida parlament nazoratini yanada kuchaytirish, dolzarb masalalarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga samarali



ta’minlashga xizmat qiladi.

Yig‘ilishda o‘simliklar karantini va himoyasi sohasidagi milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkilotining sanitariya va fitosanitariya choralariga muvofiqlashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham atroflicha muhokama qilindi. Ushbu hujjat JSTga a’zo bo‘lish jarayonini jadallashtirish, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka joriy etish hamda mamlakatimizda yetishtirilgan o‘simlik va mahsulotlarning tashqi bozorlarga to‘siqlariz chiqishini ta’minlashni nazarda tutadi.

Mazkur qonun loyihasi bilan bir qator qonun hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif qilinmoqda. Muhokama jarayonida deputat Shokirjon Ahmedov loyihada aks etayotgan yangi talablar fuqarolar va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ortiqcha qiyinchiliklar keltirib chiqarmasligi, ularni amalga oshirishda qulay mexanizmlar yaratilishi lozimligini

yechim topishda muhim omil bo‘lishi alohida qayd etildi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi ta’kidlandi. Qonun loyihasi fraksiya a‘zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Eg‘ilishda, shuningdek, ekologik toza hududlarning muqomini huquqiy maqomini belgilashga qaratilgan qonun loyihasi muhokamadan o‘tkazildi.

Ushbu qonun loyihasi ekologik toza hududlarning muqomini va rejimini belgilashga hamda mazkur hududlarda plastik mahsulotlarning muomalasini tartibga solishga qaratilgan.

Fraksiya a‘zolari belgilanayotgan normalar mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, kurort va ekoturizm salohiyatini oshirish, bioxilmaxillikni muhofaza etishga xizmat qilishini ta’kidlab, qonun loyihasini qo‘llab-quvvatladi.

“Xalq so‘zi”.

GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARGA
INNOVATSION YECHIMLAR

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (“Green University”)da “Ekologik muammolarning tabiatga asoslangan yechimlari” mavzuida III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi.

Anjuman

Maqsad — barqaror rivojlanish tamoyillari hamda ilg‘or, ekologik yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida ekologik islohotlarni amalga oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini muhokama qilishdan iborat.

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyoda iqlim o‘zgarishi, suv resurslari tanqisligi, bioxilmaxillikning yo‘qolishi, yerlarning sho‘rlanishi va atmosfera havosining ifloslanishi kabi jiddiy ekologik muammolar kuzatilayotir. Ular atrof-muhit, iqtisodiyot, jamoatchilik va aholi salomatligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lidagi mintaqaviy hamda global sa’y-harakatlarni faol qo‘llab-quvvatlamqda. Xususan, 2025-yil yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi ekologik barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy o‘shishning resurslar tejamliligiga asoslangan

“yashil” rivojlanish modeliga o‘tish Yangi O‘zbekistonning strategik maqsadi ekanini namoyon etdi.

Prezidentimizning yaqinda imzolangan milliy ekologik bosqaruvni tubdan o‘zgartirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi farmoni sohani sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo‘ldi. Unga ko‘ra to‘g‘ridan-to‘g‘ri Prezident va Oliy Majlis Senati oldida hisobdor Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi tashkil etildi.

Tadbirda “Green University”da “IUCN” mintaqaviy vakolatxonasining ochilishi xalqaro hamjamiyatning Markaziy Osiyodagi ekologik muammolarni ilmiy asoslangan yechimlar orqali hal qilishda O‘zbekistonning tutgan o‘rniga yuksak ishonchdan darak berishi ta’kidlandi. Universitet bazasida Xitoy Fanlar akademiyasining Shinjon Ekologiya va geografiya instituti bilan hamkorlikda ochilgan Markaziy Osiyo ekologiya tadqiqot markazi mintaqaviy ilmiy izlanishlar uchun asosiy platformaga aylanishi aytiladi.

Anjumanning yalpi majlisi doirasida mahalliy va xorijiy yetakchi ekspertlarning ma’ruzalari tinglandi. O‘zbekistonning ekologik va suv xo‘jaligi muammolari hamda iqlim o‘zgarishi sharoitida ularni hal etish yo‘llari masalalariga e’tibor qaratildi. Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish, ayni yo‘nalishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilishning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar, ilmiy xulosalar aytildi.

Suv yetlovchi texnologiyalarning qishloq xo‘jaligi mahsulotligiga ta’siri, zamonaviy usul va vositalar yordamida shaharlardagi iqlimiy hamda tabiiy xatralarni boshqarish masalalari, yertlardan foydalanishni baholashda integratsiyalashtirgan yondashuvlar, daryo havzalarini barqaror boshqarish strategiyalari, atmosfera havosi sifatini monitoring qilish mavzularidagi muhokamalar, bildirilgan taklif hamda tavsiyalar kelgusida ekologik muammolarga munosib yechim bo‘la olishi ta’kidlandi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi — Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi raisi Aziz Abdurahimov ishtirok etdi.

“Xalq so‘zi”.

Sukuba universiteti bilan birgalikda Toshkent shahrida birinchi O‘zbekiston — Yaponiya universitetini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

INSON KAPITALI ORQALI TARAQQIYOT

O'ZBEKISTON – YAPONIYA STRATEGIK SHERIKLIGINING YANGI MODEL



Shu ma'noda, ta'lim sohasidagi hamkorlik ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklikning institutsional poydevori vazifasini bajarmoqda.

Muzokaralar chog'ida yosh avlodning zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularning kelgusida tadbirkorlik hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirishga tayyor holda shakllanishida O'zbekiston — Yaponiya Inson resurslarini rivojlantirish markazining o'rni alohida ta'kidlandi. Mazkur markaz mamlakatdagi faoliyat yuritib, ta'lim bilan amaliy iqtisodiy ehtiyojlarni o'rtasida bog'lovchi platforma sifatida shakllanib ulgurd. Uning faoliyati bozor talablariga mos amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston — Yaponiya strategik sheriklik munosabatlarning izchil rivojlanib borayotgani ta'lim sohasidagi aniq ko'rsatkichlar bilan ham tasdiqlanmoqda. Xususan, bugungi kunda O'zbekistondagi yettita oliy ta'lim muassasasida yapon tili o'qitilayotgani, Tokio chet tillar universitetida esa so'nggi o'n yil davomida o'zbek tilini o'rganish amaliyoti yo'lga qo'yilgani ikki tomonlama gumanitar aloqalarning institutsional tush olganidan dalolat beradi. Bu jarayonlar til va madaniyat orqali o'zaro ishonchni mustahkamlash, akademik hamda ilmiy hamkorlik uchun barqaror zamin yaratishga xizmat qilayotir.

Tokioda o'tkazilgan muzokaralar ta'lim va inson kapitali masalalari O'zbekiston — Yaponiya munosabatlardagi strategik ahamiyatga ega ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotganini yaqqol ko'rsatdi. Bu yondashuv ikki davlat hamkorligini qisqa muddatli loyihalar doirasidan chiqarib, kelgusi avlodlar taraqqiyotiga xizmat qiladigan uzoq muddatli, tizimli sheriklikka aylantirishga qaratilgani bilan muhim o'rin tutadi.

Innovatsiya —

iqtisodiyot poydevori

Yaponiyaning "iqtisodiyot mo'jizasi" tasodifiy yoki qisqa muddatli omillar natijasi emas. U ilmiy asoslangan, uzoq yillar davomida izchil amalga oshirilgan ta'lim va fan siyosatiga tayangan rivojlanish modelining mantiqiy natijasi. Ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilayotgan salmoqli moliyaviy resurslar, patentlar soni bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlarni egallashi, shuningdek, fizika, kimyo va tibbiyot sohalarida Nobel mukofoti sovrindorlarini yetishtirib chiqargan barqaror ilmiy muhit mazkur modelning yuqori amaliy samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi.

Yapon ta'lim tizimining o'ziga xosligi, avvalo, fundamental fanlarga, xususan, matematika va tabiiy fanlarga tayangan mustahkam ilmiy bazaga ega ekanini bilib izohlanadi. Bu baza ta'lim sifatiga qo'yiladigan yuqori talablarni, akademik intizom va uzluksiz takomillashuv tamoyillari bilan uyg'unlashgan. Eng muhimi, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi institutsional bog'liqlik tizimli ravishda shakllantirilgan. Mazkur bog'liqlik ilmiy g'oyalarning tezkor ravishda amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot natijalarining iqtisodiy qiymatga aylanishini ta'minlaydigan asosiy



mexanizm sifatida xizmat qilmoqda.

Aynan shu model Yaponiyada innovatsiyalarning uzluksiz ravishda yaratilishi va joriy etilishiga, yuqori texnologik mahsulotlar ulushining oshishiga hamda milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uzviy bog'langan holda olib borilishi innovatsiyalarning laboratoriya darajasida qolib ketmasdan, sanoat va biznes muhitiga kirib borinishi ta'minlaydi.

Shu nuqtayi nazaridan qaratilganda, O'zbekistonda ta'lim va fanni rivojlantirish masalasining davlat siyosati darajasida ustuvor vazifa sifatida belgilanishi bevosita ilg'or xalqaro tajriba, jumladan, Yaponiya modeliga tayangan holda amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lim va fan mamlakatni jadal modernizatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish hamda global intellektual makonga integratsiyalashuvning asosiy sharti sifatida belgilab berilgani strategik jihatdan chuqur asoslangan yondashuv hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim qamrovining kengayishi, ilmiy faollik ko'rsatkichlarining o'sishi, xalqaro akademik va ilmiy hamkorlikning faollashuvi ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalarini namoyon etmoqda. Biroq zamonaviy global raqobat sharoitida bu natijalar bilan cheklanib qolish mumkin emas. Ilim-fanni chuqur transformatsiya qilish, yangi avlod tadqiqotchilari tayyorlash, ilmiy faoliyatni klaster modeli asosida tashkil etish hamda ilmiy tadqiqotlarni iqtisodiy o'sish nuqtalari bilan bog'lash oldimizda turgan ustuvor vazifalar bo'lib qolmoqda.

Demak, Yaponiya tajribasi O'zbekiston uchun ilmiy asoslangan, uzoq muddatli va tizimli yondashuv namunasini sifatida ahamiyat kasb etadi. Bu tajriba ta'lim va fanni iqtisodiy taraqqiyotning qo'shimcha omili emas, balki uning asosiy harakatlaniruvchi kuchiga aylantirish zarurligini yaqqol ko'rsatib beradi.

Ilmiy diplomatiya:

“JSPS” va “JST” bilan

hamkorlik ahamiyati

Yaponiyaga amalga oshirilgan rasmiy tashrif doirasida ilmiy diplomatiya yo'nalishida ham muhim va uzoq muddatli ahamiyatga ega natijalarga erishildi. Xususan, Yaponiyaning yetakchi ilmiy institutlari — “Japan Society for the Promotion of Science” (JSPS) va “Japan

Science and Technology Agency” (JST) bilan hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Bu muzokaralar fan sohasidagi hamkorlikni alohida loyihalar darajasidan chiqarib, institutsional va tizimli hamkorlik bosqichiga o'tkazishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

“JSPS” bilan olib borilgan muloqotlar, avvalo, fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, qo'shma ilmiy izlanishlar geografiyasini kengaytirish hamda tadqiqotchilar almashinuvi mexanizmlarini mustahkamlash masalalariga qaratildi. Ayniqsa, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, doktorantlar va postdoktorantlar uchun stajirovklar, qo'shma grant dasturlari orqali ilmiy maktablar o'rtasida uzviy aloqalarni yo'lga qo'yish ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. Bu yo'nalishdagi hamkorlik inson kapitali sifatini oshirish, yangi avlod tadqiqotchilari xalqaro ilmiy standartlar asosida tayyorlashga xizmat qiladi.

“JST” bilan hamkorlik esa amaliy va innovatsion tadqiqotlarga yo'naltirilgani bilan ajralib turadi. Xususan, “SATREPS” (“Science and Technology Research Partnership for Sustainable Development”), “SICORP” (“Strategic International Collaborative Research Program”) kabi xalqaro dasturlar doirasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari muhokama qilindi. Mazkur dasturlar fan, texnologiya va innovatsiyalarni barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirgan holda amaliy yechimlar ishlab chiqishga qaratilgani bilan strategik ahamiyat kasb etadi.

Ushbu hamkorlik formatlari O'zbekiston ilim-fani uchun bir necha muhim yo'nalishlarda yangi imkoniyatlar ochadi. Birinchidan, milliy ilmiy tadqiqotlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, ilmiy natijalarni innovatsion mahsulot va texnologiyalarga aylantirish jarayonini tezlashtiradi. Uchinchidan, O'zbekiston olimlarining jahon ilmiy ekotizimiga integratsiyalashuvini ta'minlab, mamlakat ilmiy salohiyatining xalqaro maydonda tan olinishini mustahkamlaydi.

Ilmiy diplomatiyaning aynan shunday modeli, ya'ni fan orqali ishonchni mustahkamlash, uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini shakllantirish va global ilmiy muammolarga qo'shma yechimlar ishlab chiqish — zamonaviy xalqaro munosabatlarda tobora muhim o'rin tutmoqda. “JSPS” va “JST” bilan yo'lga qo'yilayotgan hamkorlik O'zbekiston uchun fanni tashqi siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylantirish, ilim-fanni iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning asosiy drayveri sifatida namoyon etishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, Yaponiya safari doirasida ilmiy diplomatiya sohasida erishilgan kelishuvlar faqat ayrim loyihalar yoki grantlar bilan cheklanib qolmay, O'zbekistonning global ilmiy makonda o'z o'rnini mustahkamlashga qaratilgan strategik qadam sifatida baholanishi mumkin.

Akademik aloqalar va kadrlar

tayyorlashda yuqori bosqich

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi ta'lim sohasidagi hamkorlik so'nggi yillarda sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Bugungi kunda 2,8 mingdan ortiq o'zbekistonlik talabalar Yaponiyaning yetakchi universitetlarida tahsil olayotgani mazkur yo'nalishdagi hamkorlikning barqaror va tizimli tush olganidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich ta'lim sohasidagi aloqalar faqat alohida tashabbuslar bilan cheklanib qolmayotgani, balki inson kapitaliga qaratilgan uzoq muddatli strategik yondashuv shakllanayotganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, “JDS” stipendiya dasturi doirasida 440 nafardan ortiq davlat xizmatchilarining Yaponiyada tayyorlangani ikki davlat o'rtasidagi o'zaro ishonch va institutsional hamkorlikning mustahkam poydevorga ega ekanini tasdiqlaydi. Ushbu dastur nafaqat yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, balki davlat boshqaruvi tizimida zamonaviy bilim, tahliylifafakkur va innovatsion yondashuvlarni joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yaponiya ta'lim modeli asosida tayyorlangan mutaxassislar mamlakatimizda islohotlarni amalga oshirish jarayonida faol qatnashib, bilim va tajriba transferiga xizmat qilmoqda.

Akademik hamkorlikni institutsional darajaga ko'tarishda Samarqand shahrida o'tkazilgan O'zbekiston — Yaponiya rektorlar forumlari alohida o'rin tutadi. Ushbu forumlar universitetlar o'rtasidagi aloqalarni shaxsiy tashabbuslar yoki alohida shartnomalar doirasidan chiqarib, tizimli va uzoq muddatli hamkorlik formatiga o'tkazishga xizmat qildi. Forumlar doirasida qo'shma ta'lim dasturlari, ilmiy tadqiqotlar, akademik almashinuv va innovatsion loyihalar bo'yicha aniq kelishuvlarga erishilishi hamkorlikning amaliy mazmunga ega ekanini ko'rsatadi.

Muhim jihat shundaki, mazkur akademik hamkorlik faqat talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvi bilan cheklanib qolmayapti. U ta'lim mazmunini yargilash, o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmiy tadqiqotlarni iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarni bilan bog'lash kabi kompleks vazifalarni qamrab olmoqda. Bu esa kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablarga javob beradigan, raqobatbardosh va innovatsiyaga yo'naltirilgan tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

Universitetlar konsorsiumi —

institutsional sifat o'zgarishi

Sukuba universiteti bilan hamkorlikda Toshkent shahrida birinchi O'zbekiston — Yaponiya universitetini tashkil etish rejasi ta'lim sohasida miqdoriy emas, balki sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishni anglatadi. Bu tashabbus alohida qo'shma ta'lim dasturini ochish yoki akademik almashinuvni kengaytirish bilan cheklanib qolmay, oliy ta'lim tizimida institutsional modelni yangilashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur loyiha orqali ta'lim, fan va innovatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni yagona tizim sifatida shakllantirish

ko'zda tutilmoqda.

Sukuba universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan universitetlar konsorsiumi ilg'or ta'lim standartlari, tadqiqotlarga asoslangan o'qitish (research-based education) va innovatsion ekotizim tamoyillarini O'zbekiston sharoitiga joriy etish imkonini beradi. Qo'shma ta'lim dasturlari bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotlar, qo'shma laboratoriyalar, startap loyihalar va texnologik transfer mexanizmlarini yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasasini faqat bilim berish markazi emas, balki innovatsiya va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi institutsional maydonga aylantirishga hissa qo'shadi. Yaponiya universitetlari konsorsiumi modelini, ayniqsa, yuqori malakali muhandislar, tadqiqotchilar va innovatsion fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlashda ulkan ahamiyatga ega. Yaponiya tajribasida ta'lim va fanning sanoat bilan uzviy bog'liqligi yuqori texnologik mahsulotlar va ilmiy natijalarning tezkor amaliyotga joriy etilishini ta'minlagan. Mazkur modelni O'zbekistonda tatbiq etish orqali milliy oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yangi institutsional poydevori yaratiladi.

Bu borada Nagoya universiteti rahbariyatining bayonoti alohida ahamiyatga ega. Universitet prezidenti O'zbekistonda yapon universitetining ochilishi yapon akademik jamoasi uchun katta sharaf bilan birga yuksak mas'uliyat ekanini ta'kidlab, ushbu tashabbusni ikki mamlakat o'rtasidagi ishonch va strategik yaqinlikning amaliy ifodasi sifatida baholadi. Bu fikr universitetlar konsorsiumi loyihasiga Yaponiya tomonining ham faqat sherik emas, balki to'liq institutsional mas'uliyat bilan yondashayotganini ko'rsatadi.

Shu ma'noda, universitet tashkil etish tashabbusi O'zbekiston — Yaponiya ta'lim hamkorligini yangi institutsional sifatga olib chiqadi. U milliy oliy ta'lim tizimida ilg'or xalqaro amaliyotlarni joriy etish, ilmiy tadqiqot salohiyatini oshirish va innovatsion iqtisodiyot uchun zarur inson kapitalini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylanishi mumkin. Mazkur loyiha ta'lim sohasidagi hamkorlikni ramziy darajadan chiqarib, aniq natijalarga yo'naltirilgan strategik mexanizim sifatida namoyon etadi.

Ekologiya va barqaror

rivojlanish:

Tottori tajribasi

O'zbekiston — Yaponiya ta'lim va ilmiy hamkorligining muhim yo'nalishlaridan biri ekologiya va barqaror rivojlanish sohasidagi qo'shma tashabbuslardir. Shu ma'noda, Tottori universiteti bilan hamkorlik O'zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Universitet rahbariyati tomonidan O'zbekistonning cho'llangan hududlarini ilmiy yondashuvlar asosida obodonlashtirish, agrotexnologiya va ekologik barqarorlik sohalarida qo'shma tadqiqotlar olib borishga tayyorlik bildirilishi bu hamkorlikning amaliy yo'naltirilganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, iqlim o'zgarishi Markaziy Osiyo uchun allaqachon nazariy tahdid emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan real muammo ga aylangan. Cho'llanish jarayonlarining tezlashishi, suv resurslarining kamayishi, yer umdoriqligining pasayishi O'zbekiston oldida turgan eng dolzarb ekologik masalalardan hisoblanadi. Tottori universitetining cho'l ekotizimlarini tiklash, qumli hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, suvni tejovchi agrotexnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy tajribasi mazkur muammolarga ilmiy asoslangan va uzoq muddatli yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Bu hamkorlik faqat alohida tadqiqotlar doirasida qolib ketmasdan, ekologiya sohasidagi ilmiy bilimlarni amaliyotga joriy etish, ya'ni barqaror rivojlanish modelini shakllantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Agrotexnologiya va ekologik innovatsiyalar sohasida qo'shma laboratoriyalar, tajriba maydonlari va pilot loyihalarni yo'lga qo'yish orqali O'zbekistonning cho'llangan hududlarida iqtisodiy faollikni saqlab qolish va aholi turmush darajasini yaxshilash imkoniyati paydo bo'ladi.

Tashrif doirasida sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, qishloq va suv xo'jaligi, “yashil” energetika, barqaror rivojlanish, seysmologiya va “aqlli” shahar texnologiyalari kabi sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgani ham tasodifiy emas. Bu yo'nalishlar O'zbekiston iqtisodiyotining kelgusi “o'sish nuqtalari” hisoblanib, ularda ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni jadallashtirish strategik ahamiyat kasb etadi. Yaponiyaning ushbu sohalaridagi ilg'or tajribasi O'zbekiston uchun texnologiyalar transferi va kadrlar tayyorlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu tariqa Tottori universiteti bilan yo'lga qo'yilayotgan hamkorlik ekologiya va barqaror rivojlanish masalalarini ta'lim hamda fan orqali hal etishning namunaviy modeli sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu yondashuv O'zbekiston — Yaponiya strategik sherikligining mazmunan boyib, inson kapitali bilan bir qatorda tabiiy resurslarni asrash va kelgusi avlodlar manfaatini ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli hamkorlikka aylanayotgani ifodasidir.

Yaponiyaga amalga oshirilgan mazkur tashrif O'zbekiston — Yaponiya munosabatlari yangi, intellektual bosqichga ko'tardi. Ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida ilgari surilgan tashabbuslar nafaqat joriy islohotlarning mantiqiy davomi, balki mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun mustahkam intellektual poydevor yaratadi. Bu hamkorlik O'zbekistonning ochiqlik, hamkorlik va taraqqiyotga qaratilgan siyosatining yorqin namunasini sifatida kelgusi avlodlar manfaatiga xizmat qiladi.

Qo'ng'iroqbo'y SHARIPOV,
O'zbekiston Respublikasi
oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vaziri.

JADIDLAR IZIDAN ODIMLAYOTGAN AVLOD

Poytaxtimizda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan uyushtirilgan “Jadidlar izidan” respublika tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Unda ta'lim sohasi mutasaddilari, ma'naviyat targ'ibotchilari, o'quvchilar qatnashd.

Tanlov

Tadbirda mamlakatimizda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, ularning qalbid ma'naviy immunitetni mustahkamlash, ma'rifiy parvar ajdodlarimiz merosiga hurmat tuyg'usini kuchaytirishga alohida urg'u qaratilayotgani ta'kidlandi.

Ikki yildan buyon o'tkazib kelinayotgan “Jadidlar izidan” respublika tanlovi taraqqiyatparvar bobolarimizning hayoti, faoliyati, ilmiy-ma'rifiy merosini yosh avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu yilgi tadbirda yurtimizning eng faol, eng intiluvchan yoshlari o'zaro kuch sinashdi. O'tgan yili tanlovga 360 ming o'quvchi ariza topshirgan bo'lsa, joriy yilda mazkur ko'rsatkich 656 ming nafardan ortiqni tashkil qildi. Shuning o'zi ham tanlovga bo'lgan qiziqish oshib borayotganini ko'rsatmoqda.

Tadbir doirasida bir guruh pedagoglar va xorijlik o'qituvchilar “Xalq ta'limi fidoyisi”, “Xalq ta'limi alochisi” ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi. “Xalq so'zi”.

ENERGETIKA BARQARORLIGI – FAROVONLIGIMIZ ASOSI

Dildora Hoshimovanning aytishicha, katta sarf-xarajatlar evaziga ishlab chiqarilgan elektr energiyasini iste'molchilarga yo'qotishlarsiz yetkazib berish masalasiga ham hukumatimiz alohida e'tibor qaratyapti. Bu borada qator qarorlar qabul qilindi, chora-tadbirlar belgilandi, ayni maqsadlar uchun davlat g'aznasidan katta mablag' yo'naltirilmoqda. Natijada hududlarda 69 ming km. elektr tarmoqlari, 14 mingta transformator va yuqori kuchlanishli nimstansiyalar yangilandi.

Yoqilg'i-energetika sohasiga investitsiya oqimining ortib borayotganini davlatimiz rahbarining xorijiy sarmoyadorlar bilan ochiq muloqotlari namolasi, deya baholash mumkin. Chunki ishonchli hamkor, biznes uchun yetarli kafolat bo'lmagan joyga investor kelmasligi tayin. O'zbekistonda esa bu borada muammo yo'q, davlat rahbarining o'zi biznes uchun, tadbirkorlar uchun bir-biridan jozibador loyihalarni, yo'nalishlarni taklif etmoqda. Ana shu sababli yoqilg'i-energetika tizimiga shu yilning yanvar — noyabr oylarida jami 8,8 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalar (*o'tgan yildagiga nisbatan 0,5 mlrd. dollar ko'p*) jalb qilindi. Shuning asosiy qismi, ya'ni 6,3 mlrd. dollari energetika yo'nalishida.

Bugungi kunda respublikada jami 148 ta elektr stansiya mavjud bo'lib, ularning o'tatilgan quvvati 25 797 MVtni tashkil etadi. Shundan issiqlik elektr stansiyalari 17 551 MVt, gidroelektr stansiyalari 2 441 MVt, quyosh fotoelektr stansiyalari 3 930 MVt, shamol elektr stansiyalari 1 652 MVt hamda blokstansiyalar 223 MVt quvvatga ega. Energiyaga talab oshgan vaqtlarda esa iste'molni qoplash uchun 11 ta 1 447 MVtga teng batareyali energiya saqlash tizimi yaratildi.

E'tiborli jihat shundaki, bugungi kunda quvvatlarning qariyb 31 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga to'g'ri keladi. 2030-yilga borib yurtimizda jami 120 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi va uning 54 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga to'g'ri kelishi rejalashtirilgan.

Joriy yil tizimga qarashli “Hududiy elektr tarmoqlari”, “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatlarida ham o'nga yaqin yirik podstantsiyalarni ta'mirlash, kabel tarmoqlarini yangilashga jiddiy e'tibor qaratildi. Ish sifati tajribali mutaxassislar tomonidan nazorat qilinmoqda. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarilgan elektr energiya samaradorligini oshirishga, isrofgarchilikni kamaytirishga turki berdi.

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida hududlarda jami 787 km. magistrat va 29,5 ming km. taqsimlovchi tarmoqlar, 9 ta magistrat nimstansiyadagi transformator va 10 270 ta transformator punkti mukammal ta'mirdan chiqarildi.

Energetika vazirligi mas'ulining so'zlariga qaraganda, qish mavsumida elektr energiyasi tarmoqlariga “bosim” kuchayadi, bu tabiiy jarayon. Qolaversa, joylarda turli sabablarga ko'ra nosozliklar, kattayu kichik avariylar yuz berishi mumkin. Ba'zi hollarda elektr va gaz tarmog'iga noqonuniy ulanish holatlari ham uchramoqda. Ayrim kishilar esa mutaxassisga aytmay, uning kelishini kutmay xonadoniga ulangan tarmoqni sozlashga yo'q bosimini o'z boshimchalik bilan ko'tarishga

intiladi. Bu muammolar ham oxir-oqibat energiya tizimidagi barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham Energetika vazirligining buyrug'iga ko'ra, respublika bo'yicha 279 ta avariya brigada tashkil etilib, ular barcha zaruri vositalar bilan to'liq ta'minlangan.

Yildan-yilga tizimda raqamlashtirish salmog'i oshmoqda. Kelgusida “aqlli” hisoblagichlar isrofgarchilikning oldini olish kafolati sifatida butun tarmoqni

“E'tiborli jihat shundaki, bugungi kunda quvvatlarning qariyb 31 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga to'g'ri keladi. 2030-yilga borib yurtimizda jami 120 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi va uning 54 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga to'g'ri kelishi rejalashtirilgan.”

qamrab oladi. Ayni chog'da esa ijtimoiy tarmoqlardagi elektr energiyasi va gaz tarmoqlari yo'nalishidagi rasmiy sayt va telegram kanallari aholi murojaatlariga tezkorlik bilan munosabat bildirilmoqda. Shu tariqa texnik nosozliklar, korpusiyaga moyillik holatlari, turli kamchiliklar mutasaddilar tomonidan bartaraf etilyapti.

Agar joriy yil qish mavsumida mamlakatimiz bo'yicha elektr energiya iste'moli qariyb 47 mlrd. kVt-soatdan oshishini nazarda tutsak, bu, albatta, tizimdagi har bir rahbar, har bir mutaxassis zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. O'z navbatida, yana bir muhim masala — energiya ta'minoti tizimidagi mutaxassislar malakasini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Tajribali ustalar

ko'magida o'quv kurslari, malaka oshirish markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

— Ayozli kunlarda gazga bo'lgan talab ham keskin oshadi va bu yo'nalishdagi ishlar ham xavfsiz va samarali bo'lmog'i zarur, — deydi Dildora Hoshimova. — Vazirlik talabiga ko'ra, gaz-transport tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida 70,9 km. nuqsonli qismlar almashtirildi, 91 ta kompressor stansiyasidagi gaz haydash agregatlari, 3 591,4 km. quvurlari sozlandi.

Shuningdek, iste'molchilar uchun gaz ta'minotini yaxshilash maqsadida 553,1 km. tarmoqlar va 971 ta gaz taqsimlash punkti mukammal ta'mirlandi. Transport vositalari va kerakli jihozlar bilan to'liq ta'minlangan brigadalar

tun-u kun navbatchilikda. Shuningdek, aholi va ijtimoiy soha obyektlariga 801 ta maxsus avtomashina ko'magida 592,9 ming tonna suyultirilgan gaz yetkazib berilgan va bu ishni kelgusida uzluksiz davom ettirish rejalashtirilgani ham aholi murojaatlarini keskin kamaytirish imkonini yaratmoqda.

Yana bir muhim yangilik. Mamlakatimizda kelgusi yil 8 ta quyosh fotoelektr, 6 ta shamol elektr stansiyasi hamda 8 ta elektr energiyasini saqlash tizimi ishga tushiriladi. Shu tariqa energetika tarmog'ining quvvati va salohiyati sezilarli darajada oshadi. Bu, albatta, xorijiy kompaniyalarning o'z sarmoyalarni hech ikkilanmasdan O'zbekiston iqtisodiyotiga yo'naltirayotgani, xalqaro maydonda yurtimizga bo'lgan ishonchning ortib borayotgani mevasidir.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, “yashil” energiya manbalariga o'tish, avvalo, o'zimiz uchun, atrof-muhitni asrash, salomatligimiz mustahkam bo'lishi uchun zarur. Zero, butun dunyo shunga intilmoqda.

— Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda isitish tizimida gazdan to'liq voz kechib, elektrga o'tish va buning uchun maxsus tariflar joriy qilinishi haqidagi fikr aytildi, — deydi Jizzax viloyati “Energiya sotish” idorasi mas'uli Oybek Sultonov. — Chunki gaz bir kun kelib tugaydigan resurs, uni yoqib yuborgandan ko'ra, chuqur qayta ishlab, polimerlar yoki o'g'itlar olish Davlat byudjeti uchun o'g'it barobar foydalidir. Dunyo tajribasiga nazar tashlasak, iqlim biddan ancha sovuq bo'lgan Shvetsiya va Norvegiyada uylarni isitishda allaqachon samaradorligi yuqori bo'lgan “issiqlik nasoslari” va to'liq elektr tizimiga o'tilgan. Ularda ham gaz bor, ammo gazdan sanoatda qo'shimcha qiymat yaratiladi. Xitoydek gigant davlat ham havo ifloslanishining oldini olish maqsadida “ko'mirdan elektrga” dasturi orqali millionlab xonadonlarni elektr isitish tizimiga o'tkazdi va buning uchun aholiga maxsus, arzonlashtirilgan tungi tariflar taqdim etilgan. Fransiya esa atom energetikasini ustuvor. Qolaversa, qaysi davlatda bo'lmasin, gazni minglab chaqirim quvurlarda haydashdan ko'ra elektr simlari orqali energiya uzatish ham arzon, ham xavfsiz.

Aslida elektrga o'tish — shunchaki gazni o'chirib, “rozetka”ga elektrpechni ulash degani emas. Buning uchun transformator-u kablarning quvvati, imkoniyati va podstantsiyalarning bardoshilligi keskin oshirilishi shart. Uylarimiz esa “termos” kabi issiqlikni saqlaydigan darajada mukammal ta'mirlanishi zarur. “Izolyatsiya” qilinmasa, ta'bir joiz bo'lsa, binoning tagidan o't yoqsangiz ham ismaydi. Shunday ekan, gazni sanoatga, elektrni esa maishiy iste'molga yo'naltirish — O'zbekiston energetikasi uchun eng maqbul yo'l. Faqat keng jamoatchilik qatori tizimning o'zida ham bunga jiddiy tayyorgarlik ko'riliishi lozim.

Abdunabi ALIQULOV
(“Xalq so'zi”).

O'tgan to'qqiz yilda Toshkent shahri iqtisodiyotiga 20 mlrd. dollardan ortiq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya kiritildi, 5 mingga yaqin yirik loyihalar



XALQARO TURIZM XARITASIDA MUNOSIB O'RIN EGALLAYOTGAN KO'HNA ZAMIN

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizm iqtisodiyotning yuqori multiplikativ samaraga ega tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulot o'sishi, aholi bandligi va hududiy rivojlanishni ta'minlashda ushbu yo'nalish muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, mamlakatimizda turizm sohasini strategik yo'nalish sifatida belgilash obyektiv iqtisodiy zarurdir. Qolaversa, O'zbekiston geoiqtisodiy va geomadaniy jihatdan Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, Buyuk Ipak yo'li chorrahasida shakllangan boy tarixiy-madaniy meros, xilma-xil tabiiy landshaftlar hamda etnomadaniy resurslar yurtimizda turizmni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Tahlil

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan turizmga strategik ahamiyat berilishi natijasida bu soha iqtisodiyotning muhim drayveriga aylanmoqda. Buning uchun turizmning huquqiy kafollari mustahkamlanayotir. Birgina 2025-yil 18-noyabrda "Ekologiya va turizm sohaslarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni va unga muvofiq qabul qilingan tegishli qaror O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning yangi va samarali bosqichini boshlab berdi. Bu sohaga nisbatan davlat siyosatining uzoq muddatli hamda barqaror yo'nalitirilganligi anglatadi.

Aytish joizki, dunyo miqyosida turizm sohasining raqamli transformatsiyasi jadal sur'atlarda rivojlanayotir. Raqamli texnologiyalarning tizimga keng joriy etilishi "smart tourism" tushunchasining shakllanishiga olib keldi. "Smart tourism" deganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, katta ma'lumotlar (big data), sun'iy intellekt, raqamli platformalar va onlayn xizmatlar asosida turistik faoliyatni boshqarishning zamonaviy modeli tushuniladi. Ushbu model turizm subyektlari xarajatlarini optimallashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va bozor munosabatlari shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, sohada korrupsiya xavfini kamaytirish, hisobot va moliyaviy operatsiyalar oshkorligini ta'minlashga hissa qo'shmoqda.

Jahon standartlariga moslashish — davr talabi

Jahon turizm bozorida raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda, O'zbekiston o'z milliy turistik mahsulotlarining jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga intilmoqda. Bu maqsadga erishish uchun, avvalo, mehmonxona, transport, ovqatlanish va ekskursiya xizmatlarining sifatini xalqaro



standartlar darajasiga ko'tarish talab etiladi.

Prezidentimizning tegishli farmon va qarorlari aynan shu yo'nalishda aniq mexanizmlarni joriy etadi. Zamonaviy turizmga barqarorlik (sustainable tourism) va ekologik tozalik asosiy talablardan biri. Tabiiy resurslarni asragan holda turizmni rivojlantirish, ekoturizm hamda agroturizm kabi yo'nalishlarga ustuvorlik berilishi O'zbekistonning uzoq muddatli turistik jozibadorligini saqlashga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini amaldagi 3,5 foizdan 7 foizgacha, shuningdek, chet ellik turistlarning yillik sonini amaldagi 10 mln.dan 20 mln. nafargacha yetkazish, to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan turistlar oqimini ko'paytirish, turizm xizmatlari yillik eksporti hajmini 6 mlrd. AQSH dollaridan oshirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, O'zbekistonning turistik shaharlari o'rtasidagi transport bog'lanishini yaxshilash, ichki aviaqatnovlar sonini ko'paytirish hamda yo'lga sarflanadigan vaqtni kamida 3 baravar qisqartirish, 4 va 5 yuldazli mehmonxonalar sonini ko'paytirish, turistik xizmatlar va mahsulotlarni diversifikatsiya qilish orqali yurtimizning turistik salohiyatini to'liq ishga solish, milliy turistik brendlarni yaratish uchun yangi instrumentlarni joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Sayyohlarni jalb qilish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarni ishga solish maqsadida 2026 — 2028-yillarda Samarqand shahridagi eng muhim tarixiy obyektlarni bog'lovchi 6,6 km. uzunlikdagi turistik marshrutga asos solish bo'yicha "Samarqandning

meros yo'li" loyihasini hayotga tatbiq etish, aholining turmush tarzi, savdo hamda xizmat ko'rsatish shoxobchalari va kommunikatsiya tizimini tarixiy muhit bilan uyg'unlashtirgan holda Xiva shahridagi Ichon qal'a majmuasini jahonda yagona bo'lgan immersiv hamda "aqlii" muzey-shaharga aylantirish maqsad qilingan.

Qolaversa, Toshkent shahrida modernizm yodgorliklarini YUNESKoning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish bo'yicha materiallar taqdim etish, eng ko'p mozaikalari bor shahar sifatida jahon miqyosida e'tirof topishiga erishish kabi ambitsiyali loyihalarni amalga oshirish ham ayni shu yo'nalishdagi ustuvor vazifalardan biridir.

Ijoiy tendensiya nimalarda namoyon bo'lmoqda?

O'zbekiston madaniy turizm markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlamoqda. Samarqand, Buxoro va Xiva eng mashhur yo'nalishlar bo'lib qolyapti.

“Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvaridan avgustgacha mamlakatga 7,5 mln. chet ellik sayyoh tashrif buyurgan, bu o'tgan yildagiga nisbatan 49 foiz ko'p. Mazkur ijoiy tendensiyaning viza rejimini liberallashtirish hamda tarixiy merosimizning faol targ'iboti, byurokratik to'siqlarning kamayishi, marketing kampaniyalarining kengayishi bilan bog'lash mumkin. Ushbu sohada o'sish mintaqaning xalqaro sayohatchilar uchun jozibadorligini oshirmoqda.”

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvaridan avgustgacha mamlakatga 7,5 mln. chet ellik sayyoh tashrif buyurgan, bu o'tgan yildagiga nisbatan 49 foiz ko'p. Mazkur ijoiy tendensiyaning viza rejimini liberallashtirish hamda tarixiy merosimizning faol targ'iboti, byurokratik to'siqlarning kamayishi, marketing kampaniyalarining kengayishi bilan bog'lash mumkin. Ushbu sohada o'sish mintaqaning xalqaro sayohatchilar uchun jozibadorligini oshirmoqda.

Turizm o'sishidagi asosiy omillardan yana biri — mintqa mamlakatlarida viza siyosatining yaxshilanishi. Bu siyosat nafaqat O'zbekiston, balki mintaqamizda ham sezilarli darajada liberallashtirildi. Bu turizm sohasida integratsiyaning yaxshi namunasidir. Mamlakatimiz o'z turizm sohasini rivojlantirishga faol sarfmoja kiritib, ham ichki, ham xorijiy investitsiyalarga

e'tibor qaratayotgani tahsinga loyiq. So'nggi sakkiz yilda O'zbekiston turizm sanoatiga 6,5 mlrd. dollar sarmoya kiritildi, natijada 130 mingta mehmonxona o'ri yaratildi.

Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, oilaviy mehmonxonalar soni 2024-yilda 319 tadan 3700 tagacha ko'paydi, 110 ta yangi mehmonxona va 110 ta xostel qurildi. Ayni shu sohada 48 ming ish o'ri yaratildi. Joriy yilda infratuzilmani rivojlantirish uchun 400 mlrd. so'm ajratilib, bu 50 ming fuqaro uchun yetarli ish o'rinlarini yaratdi.

Shu o'rinda aytish kerakki, O'zbekistonning YUNESKO bilan hamkorligi mamlakatning boy madaniy-tarixiy merosini asrash, uni xalqaro miqyosda targ'ib qilish hamda turizm sohasini barqaror rivojlantirishda muhim institutsional asosdir.

O'zaro hamkorlik, avvalo, moddiy madaniy meros obyektlari muhofazasi orqali namoyon bo'ladi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy

shahar markazlarining tashkilotning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi ushbu hududlarning xalqaro nufuzini oshirish bilan birga, ularni saqlash, restavratsiya qilish va ilmiy asosda boshqarish uchun huquqiy ulushining o'sishi esa mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti hamda aholi farovonligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'layotir. Shu ma'noda, tizimli chora-tadbirlar O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish va uni iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylantirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar va belgilangan ustuvor vazifalar Yangi O'zbekistonning xalqaro turizm xaritasida barqaror o'rin egallashida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turistlar oqimining ko'payishi, turizm xizmatlari eksporti hajmining oshishi hamda sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining o'sishi esa mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti hamda aholi farovonligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'layotir. Shu ma'noda, tizimli chora-tadbirlar O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish va uni iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylantirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zaro hamkorlikning strategik ahamiyati

Nomoddiy madaniy meros sohasida ham O'zbekistonning YUNESKO bilan hamkorligi strategik ahamiyat kasb etadi. Milliy an'analar, urfodatlar, hunarmandchilik, og'zaki ijod va marosimlarning YUNESKO ro'yxatlariga kiritilishi ularni saqlash bilan bir qatorda, milliy madaniy identichlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon turizm sohasi uchun ham muhim hisoblanadi, chunki zamonaviy turist nafaqat arxitektura yodgorliklariga, balki mahalliy madaniyat, an'analar va hayot tarziga qiziqish bildirimoqda. Shu nuqtayi nazardan, nomoddiy meros obyektlari etnoturizm, madaniy turizm hamda ijtimoiy turizmni rivojlantirishda muhim resursga aylanmoqda.

YUNESKO va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi, bu — ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasi. Xalqaro standartlar asosida mutaxassislar tayyorlash, madaniy merosni boshqarish, restavratsiya, muzeyshunoslik hamda turizm sohaslarida ilmiy salohiyatni oshirishga qaratilgan qo'shma loyihalar amalga oshirilayotir. Bu ham turizm sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligini bartaraf etish bilan birga, xizmatlar sifatini oshirish hamda raqobatbardosh turistik mahsulotlarni shakllantirish imkonini bermoqda.

Mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan sohaga qaratilayotgan e'tibor tufayli ushbu yo'nalishdagi ishlar izchillik kasb etmoqdaki, bu, shubhasiz, yurtimizga kelayotgan sayyohlar oqimini keskin oshirdi. Boshqa tomondan, infratuzilma rivojlantirilmogda, yangi aeroportlar, tezyurar temir yo'llar, zamonaviy mehmonxonalar va yo'l infratuzilmasi qurilayotgani sayyohlarning mamlakatimiz bo'ylab harakatlanishini qulaylashtirdi.

Darvoqe, bugungi kunda zaminimizda an'anaviy madaniy-tarixiy turizmdan tashqari, ziyorat turizmi, gastronomik turizm, tog' turizmi va ekoturizm kabi yangi yo'nalishlar faol rivojlantirilaypti.

Nozima ZUFAROVA,
TDIU turizm fakulteti dekani,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

REKLAMA

“Elektron Realtor” MCHJ



**to'g'ridan-to'g'ri
muzokaralar olib
borish yo'li bilan
tashkillashtiriladigan
ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan
huquqlar bo'yicha o'lkaziladigan
savdoga taklif etadi.**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2025-yil 15-apreldagi PQ-142-sonli qaroriga
asosan “O'zsanoatqurilishbank” ATB balansida
bo'lgan:**

— Surxondaryo viloyati, Qiziriq tumani, “Rabotak” MFY, 10-Gulzor ko'chasi, 53-uyda joylashgan to'yxona binosi sotiladi.

Sotish sharti va narxi bilan www.e-rieltor.uz sayti orqali tanishishingiz mumkin.

Savdoga qo'yilgan mulklarni bevosita joyiga chiqib ko'rish imkoniyati mavjud.

**Savdoda ishtirok etish
uchun talabgorlar “e-rieltor.uz” platformasi
orqali ariza berishi kerak.**

**Call-markaz: +99855-517-22-20.
Rasmiy saytimiz: www.e-rieltor.uz**

ORZUIMIZ USHALGAN KUN

Surxon vohasining olis bir qishlog'ida istiqomat qilaman. Ikki nafar farzandim bor. Turmush o'rtog'im ikkinchi guruh nogironi.

Ochig'i, ko'p yillar oilamiz uchun hayot oson kechmadi. O'z uyimiz yo'qligidan ota uyimizda yashab keldik. Tor hovli, tor uy — bolalarning shovqiniga qo'shib iztirob kengaysa-da, yuragim torayganday tuyulardi. Ertalab bolalarim maktabga ketarkan, “Ona, qachon bizning ham o'z uyimiz bo'ladi?” degan savolni bermaslikka harakat qilishardi. Lekin ularning ko'zlaridagi umidni ko'rib, ich-ichimdan ezilardim.

Qishloqdan maktub

Turmush o'rtog'imning sog'ligi tufayli doimiy ishda bo'lish qiyin. Men esa qo'lmdan kelgancha ro'zg'orni yuritishga, farzandlarimizni kam-kot'stiz ulg'aytirishga intildim. Shu sharoitda “mahalla yetiligi” tomonidan oilamiz kambag'al oilalar reyestriga kiritildi. Bu men uchun shunchaki ro'yxat emas, balki katta umid edi. Va Yangi O'zbekistonda “Inson qadri uchun” degan so'zlar qog'ozda qolmayotganini o'z hayotimda his qildim.

Mahalladagi mas'ullar sharoitimizni o'rganib, muammolarimizni eshitti. Oradan ko'p o'tmay, homiylar ko'magi bilan oilamiz uchun 3 xonalik, barcha zamonaviy sharoitlarga ega uy qurib berildi. Ilk bor yangi uyimizga kirib

kelganimizdagi farzandlarimning quvonchini hech qachon unutmam kerak. Ular ishonib-ishonmay “Ona, bu rostdan ham bizning uyimizmi?” deb so'raganida beixtiyor ko'zimga yosh keldi. Bu shukronalik ko'z yoshi edi...

Asosiysi, yangi uy bilan yangi hayot boshlandi. Turmush o'rtog'imning ham ruhiyati ko'tarildi, farzandlarimizning kelajakka umidi ortdi. Bugun shuni ayta olamanki, davlatimizning insonparvar siyosati qayerdadir uzoqda emas, u bizning mahallamizda, uyimizda, bolalarimizning quvonchida namoyon bo'lyapti. Agar insonga ishonch berilsa, suyanchi borligini his etsa, u albatta, ertangi kunidan xotirjam bo'ladi.



Yangi O'zbekistonni ana shunday — oddiy inson taqdiriga ham befarq bo'lmagan g'amxo'r va adolatli jamiyat sifatida ko'raman. Davlat tomonidan burchalik e'tibor oilamiz uchun faqat boshpana emas, balki kelajakka yuksak ishonch ham berdi. Prezidentimiz olib borayotgan insonparvar siyosatga javoban endilikdagi maqsadimiz — farzandlarimizni Vatanga sodiq, xalqqa foyda keltiradigan, mehnatsevar va halol insonlar qilib tarbiyalash. Ishontirib aytamanki, ular Yangi O'zbekiston ravnaqiga o'z hissasini qo'shadigan barkamol inson bo'lib ulg'ayadi.

Barno ALIYEVA,
Uzun tumanidagi Kichik
jonchekka mahallasi fuqarosi.

2026 — 2030-yillarda bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo'yicha strategiya ishlab chiqildi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G'. Bahromov.
Musahhih SH. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6

ANDIJON

TOMONLARDA

Xonobod shahrini mamlakatimizning yirik sayyohlik markazlaridan biriga aylantirish maqsadida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish davom etmoqda. Xususan, Kampirovot mahallasi hududida sun'iy ko'l havzasi barpo etilayotgani ham shundan dalolat.

XONOBODDA YANGI SAYYOHLIK LOYIHASI



— Bunyodkorlik ishlari 104 gektar maydonni qamrab olmoqda, — deydi shahar hokimligi xodimi Qudusbek Tursunboyev. — 25 gektarlik sun'iy ko'l bunyod etish, savdo va ko'ngilochar markazlarini qurish, uchta ochiq cho'milish havzasi hamda bir nechta akvaparklarni tashkil qilish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, hududda har biri 100 o'rinli 8 ta apartotel, 200 o'ranga mo'ljallangan zamonaviy mehmonxona, sport maydonlari, aholi dam olish maskanlari va keng ko'lami yashil hududlar barpo etilishi ko'zda tutilgan. Loyiha to'liq amalga oshirilgach, Xonobod shahrida turizm infratuzilmasi yangi bosqichga ko'tarilishi, aholi uchun yangidan-yangi ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda.

MEBELSOZLIKKA

IXTISOSLASHTIRILGAN SANOAT ZONASI

Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda sanoat zonalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu borada erishilgan yutuqlar Andijon viloyati misolida ham yaqqol namoyon bo'lyapti. Hozirga qadar hududda 48 ta sanoat zonasi ochilib, 5,7 trln. so'mlik 1337 ta loyiha ishga tushirildi.



— Oltinko'l tumanida 16 gektar maydonda mebelsozlikka ixtisoslashtirilgan sanoat zonasi tashkil etildi, — deydi Savdo-sanoat palatasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i Akmaljon Mamajonov. — Bu yerda ishlab chiqarish sexlari va savdo bo'limlari mavjud. Loyiha ishlari hozir ham davom etyapti, korxonalar bosqichma-bosqich ishga tushirilmoqda. To'liq foydalanishga topshirilgach, 1,5 mingta ish o'ri yaratiladi, 237 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat olib boradi. E'tiborli jihati, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hozirdanoq ichki bozor bilan bir qatorda Qirg'iziston va Tojikistonga eksport qilinmoqda.

XO'JAOBODDA

“AQLLI” HISOBLAGICHLAR ISHLAB CHIQRILADI

Xo'jaobod tumanida Xitoyning “Sanshuan Intelligent Technology Co., Ltd” kompaniyasi bilan hamkorlikda “aqlii” suv hisoblagichlar ishlab chiqarish korxonasi barpo etilmoqda. Zavod ishga tushirilgach, yuzdan ortiq ish o'rinlari yaratiladi.

— Yangi korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlar zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan bo'lib, suv sarfini aniq hisoblash va nazorat qilish imkonini beradi, — deydi viloyat hokimligi xodimi Rustamjon Eshonov. — Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra, bunday hisoblagichlar o'rnatilgan xonadon va tashkilotlarda suv isrofgarchiligi kamayib, umumiy iste'mol hajmini taxminan 10 — 20 foizgacha tejash, iste'molchilar tomonidan to'lanadigan to'lovni esa 4-5 barobar qisqartirish imkonini vujudga keladi.

Aholi va ishlab chiqarish korxonalarda suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan ushbu mahsulot kelgusida hududdagi kommunal xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi.

Saminjon HUSANOV
 (“Xalq so'zi”).

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi hamda “Demokratlashtirish va inson huquqlari” jurnali tahririyati jamoasi jurnal katta muharriri
Vitaliy Giyenovich KANning
vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlarigachurur ta'ziyaizhor etadi.